

ARAB TILIDA TAVABI' BO'LAKLARNING NAZARIY ASOSLARI VA GRAMMATIK TASNIFI

Suvonqulova Ra'no Elmurod qizi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Lingvistika:

arab tili yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tili nahv tizimidagi tavobi' (ergashgan bo'laklar) tushunchasining nazariy-grammatik asoslari tadqiq etiladi. Tadqiqotda "tobi'" va "matbu'" munosabatlari, ularning i'rob tizimidagi o'rni hamda o'zaro moslashuv qonuniyatlari Sibavayh, Ibn Molik va Ibn Aqil kabi klassik tilshunoslar qarashlari asosida tahlil qilingan. Na't, ta'kid, badal va atf turlarining semantik xususiyatlari hamda gap qurilishidagi funksional vazifalari ilmiy manbalar va misollar orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Arab tili, nahv tizimi, sintaksis, tavobi', tobi' va matbu', i'rob qoidalari, na't (sifat), haqiqiy na't, sababiy na't, ta'kid, lafziy ta'kid, ma'naviy ta'kid, badal, bog'lovchilar semantikasi, klassik tilshunoslik, Ibn Aqil sharhi, lingvistik tahlil, grammatik moslashuv.

THEORETICAL FOUNDATIONS AND GRAMMATICAL CLASSIFICATION OF SUBORDINATE PARTS (TAWABI) IN THE ARABIC LANGUAGE

Annotation: This article explores the theoretical and grammatical foundations of "tawabi" (subordinate parts) within the Arabic syntax system. The study analyzes the

relationship between "tabi" and "matbu," their role in the i'rab system, and the rules of grammatical agreement based on the perspectives of classical linguists such as Sibawayh, Ibn Malik, and Ibn Aqil. The semantic features and functional roles of adjectives (na't), emphasis (ta'kid), apposition (badal), and conjunctions (atf) are elucidated through scientific sources and linguistic examples.

Keywords: Arabic language, Nahw system, syntax, tawabi (subordinate parts), tabi and matbu (follower and followed), rules of i'rab, na't (adjective), real adjective, causal adjective, ta'kid (emphasis), literal emphasis, semantic emphasis, badal (apposition), semantics of conjunctions, classical linguistics, Ibn Aqil's commentary, linguistic analysis, grammatical agreement.

Tavabi' bo'laklari arab tilining sarf ilmida o'rganiladigan eng muhim, dolzarb birliklardan hisoblanadi.

Tavabi' (التوابع) so'zining lug'aviy ma'nosi - "biror narsaga ergashuvchi, unga tobe bo'luvchi" degan ma'nolarni anglatib, تابع fe'lidan فاعل vaznida yasalgan aniq daraja sifatdoshining ko'plik shakli hisoblanib, substantivatsiya hodisasi asosida otlashib ketgan grammatik termin hisoblanadi.

Istilohiy jihatdan esa tavabi' atamasi – hokim so'zga ergashib, u bilan moslashuvchi tobe qismdir. Arab tilshunos olimlaridan ibn Aqilning ibn Molikning "ألفية" asariga yozgan sharhida:

التوابع هي الكلمات التي تتبع ما قبلها في الإعراب.

"Tavabilar e'robda o'zidan oldingi so'zga ergashuvchi so'zlar"¹, - deb ta'rif beradi.

Arab tilida so'z birikmasini shakllantirish davomifda tobe qism hokim qismga to'rt jihatdan moslashishi shart hisoblanadi. Chunonchi, bular – son, jins, kelishik va holat kategoriyalaridir. Masalan, quyida shoir al-Mutanabbiyning "ديوان المتنبي" asaridan keltirilgan baytda tavabi' bo'laklarning misolini ko'rish mumkin:

ابن عقيل. شرح ابن عقيل على ألفية ابن مالك. بيروت: دار الفكر، 1995م. في مجلدين، 928 ص¹

إذا غامرت في شرف مَروم

فلا تقنع بما دون النجوم²

Tarjimasi:

Agar sen orzu qilingan sharaf yo'lida tavakkal qilsang,

Yulduzlardan pastrog'iga qanoat qilma.

Ushbu baytdagi “شرف مَروم” so'z birikmasida “sharaf” so'zi hokim so'z hisoblanadi, chunki u birikmadagi mazmuniy markaz hisoblanadi. Birikmadagi “مَروم” so'zi esa “orzu qilingan” ma'nosini bildiradi va bevosita “sharaf” so'zining belgisini bildirib kelyapti. Shu sababli, hokim so'zning xususiyatlari (muzakkar, birlik, qaratqich kelishigi, aniq holat) tobe so'zda aynan aks etgan.

Tavabi' birikmalarda, asosan, ikki qism bo'ladi: tabi' (tobe so'z) va matbu' (hokim so'z). Tobe so'z gapda mustaqil sintaktik vazifani bajarmaydi, balkim, o'zidan oldingi matbu' bo'lgan hokim so'zga tobe bo'lgan holda uning grammatik ko'rsatkichlarini o'zida aks ettiradi. O'rta asrlar arabshunos olimlari bu hodisani “taba'iyat” (ergashish) deb ataganlar. Masalan, Ibn as-Sarroj “الأصول في النحو” asarida tavabi' haqida shunday yozadi:

”وَالْتَوَابِعُ تَجْرِي فِي الْإِعْرَابِ عَلَى حُكْمِ مَا قَبْلَهَا، فَتَرْفَعُ إِذَا رُفِعَ، وَتَنْصَبُ إِذَا نُصِبَ، وَتُجَرُّ إِذَا جُرَّ“³

Tarjimasi:

“Ergashuvchi bo'laklar e'robda o'zidan oldingi so'z hukmiga ko'ra harakat qiladi: agar u ra'f holatda bo'lsa, ular ham ra'f bo'ladi; agar nasb bo'lsa, ular ham nasb bo'ladi; jar bo'lsa, ular ham jar bo'ladi.”

Keyingi davrning yetuk nahv olimlaridan biri Ibn Ya'ish “شرح المفصل” asarida tavabi' bo'laklarni:

”وَالْتَوَابِعُ هِيَ الْأَفَاضُ الَّتِي تَتَّبِعُ مَا قَبْلَهَا فِي الْإِعْرَابِ، وَتَكُونُ شَرِيكَةً لَهَا فِي الْعَوَامِلِ اللَّفْظِيَّةِ“⁴

Tarjimasi:

² المتنبى. ديوان المتنبى. بيروت: دار صادر، 1998م

³ ابن السراج، أبو بكر محمد بن السري. الأصول في النحو. بيروت: دار صادر، 1996م. ص 124

⁴ ابن يعيش، موفق الدين. شرح المفصل. بيروت: دار الكتب العلمية، 2001م. ج 1، ص 133

“Tavabi’ bo‘laklar — e’robda birinchisiga teng bo‘luvchi va omillarda ham sherik bo‘luvchi ergashgan ikkilamchi bo‘laklar.”, - deb ta’rif beradi.

Tavabi’ bo‘laklarning tarixiy shakllanishi asrlar davomida takomillashib borgan. Dastlab, arab tilshunosligi va grammatikasini shakllantirishga ulkan hissa qo‘shgan tilshunos olim Sibavayh o‘zining mashhur “الكتاب” asarida so‘z birikmalari va sifatlarni alohida tahlil qilib, ularning hokim so‘z bilan muvofiqlashuv qonuniyatlarini bayon qilgan. Sibavayhning nazdida jumlada ismga ergashuvchi sifatning o‘ziga xos roli bo‘lib, butun bir gapni yoki predikativ mazmundagi bo‘lakni sifat o‘rnida qo‘llash nomaqbul sanalgan, ya’ni, sifat faqat ismlar bilan birikishi lozim bo‘lgan haqiqiy aniqlovchi bo‘lishi kerak deb hisoblagan. Keyinchalik Basra va Kufa grammatika maktablari vakillari tavabi’ turlarini bir-biridan farqlash mezonlarini aniqlashtirish borasida turli fikr-mulohazalarni bildirishgan. Jumladan, Ibn Jinniy na’t, ya’ni sifatning haqiqiy va sababiy (bevosita otning belgisini emas, balki ot bilan bog‘liq boshqa unsur belgisini bildiruvchi) turlarini amalda tanqidiy tahlil qilib, ularga nom bermagan holda izohlaganlar. Ibn Hishom singari keyingi bosqich nahvshunos olimlari o‘z asarlarida yuqoridagi na’tning ikki turini alohida “na’t haqiqiy” va “na’t sababiy” kabi atamalar bilan farqlaydi va izohlaydi, ularga doir qoida va istisno holatlarini ochiq sharhlab, bayon qilib beradi.

Tavabi’ bo‘laklarining nazariy rivojlanishida Mahmud az-Zamaxshariyning hissasi juda katta. Xususan, uning “المفصل في علم العربية” (“Arab ilmidagi mufasssal”) asari arab grammatikasi bo‘yicha o‘z davrining eng nodir va mufasssil qo‘llanmasi bo‘lib, unda tavabi’ bo‘laklari batafsil bayon etilgan. Xususan, Zamaxshariy o‘z asarida izohlangan na’t va badalning nozik farqlari, ta’kiddagi semantik bo‘yoqni ochib beradi.

Umuman olganda, tavabi’ tushunchasi arab grammatikasining ilk bosqichlaridan boshlab amaliy qo‘llangan bo‘lishiga qaramay, uning termin sifatida to‘liq shakllanishi bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, tavabi’ termini Sibavayh davrida hali keng qamrovda qo‘llanilmagan bo‘lib, keyinchalik, Ibn as-Saroj va Ibn al-Anbariy singari olimlar asarida at-tavabi’ na’t, atf, badal, tavkid kabi ergashuvchi bo‘laklarni umumlashtiruvchi kategoriya nomi sifatida qo‘llana boshlagan. Ibn Aqil Ibn Molikning

“Alfiya”siga yozgan sharhida tavabi’ni aniq ta’riflab, *“ular – o‘zlari ergashgan ismning e’robini to‘liq baham ko‘ruvchi so‘zlardir”*, - deya ta’kidlab o‘tgan. Bu ta’rif tavabi’ mohiyatini oson, aniq, soda ifodalaganligi sabab ham, hozirga qadar ilmiy ish va tadqiqotlarda keltiriladi.

Tavabi’ bo‘laklari 4 ta turga bo‘linadi. Bular – na’t(sifatlovchi aniqllovchi), tavid(urg‘u), badal(izohlovchi) va atf(bog‘lovchi). Bularning barchasi uchun umumiy bo‘lgan xususiyat – o‘zidan oldingi so‘zga sintaktik jihatdan tobe bo‘lishi va moslashuvidir. Lekin, yuqoridagi har bir turning farqli xususiyatlari bor bo‘lib, o‘ziga xos funksiyani bajaradi. Quyida har bir tavabi’ bo‘lak turiga alohida sharh beriladi.

Na’t (aniqllovchi) – sifat yoki sifatdosh, son, ba’zan, ot yoki olmoshdan iborat bo‘lib, o‘zidan oldinda turgan hokim so‘zning belgisini bildiradi. Odatda, bu termin sifat(صفة)ning sinonimi tarzda keladi. Sifat atamasi arabcha vasflash, tasvirlash fe’lining harakat nomi hisoblanadi. Na’tning gapdagi sintaktik vazifasi aniqllovchi bo‘lib, man’ut(aniqlanmish) bilan barcha grammatik kategoriyalar (jins, son, kelishik va holat)da moslashadi.

Semantik jihatdan na’tning ikki turi mavjud bo‘lib, bular - haqiqiy aniqllovchi(an-na’t haqiqiy) va sabab aniqllovchisi(an-na’t sababiy). Haqiqiy aniqllovchi bevosita aniqlanmishning belgisini bildiradi. Masalan, yuqorida keltirilgan “tirishqoq talaba” birikmasida “tirishqoq” so‘zi bevosita egani tasvirlaganini ko‘rish mumkin. Haqiqiy aniqllovchidan farqli ravishda, sabab aniqllovchisi belgini bevosita emas, balkim, bilvosita bildiradi. Ya’ni, obyektning o‘zini emas, balkim, u bilan bog‘liq qandaydir holatning belgisini xarakterlaydi.

Arab tilshunosligida tavid tushunchasi gap strukturasidagi ma’noviy yuklama va ifoda darajasini oshiruvchi asosiy sintaktik vositalardan biri sifatida qaraladi. Ushbu birlik matnda aytilayotgan fikrni mustahkamlash, aniqlik kiritish yoki ikkilanishni yo‘qotish maqsadida qo‘llaniladi. Tavid odatda al-matbu’ – ya’ni hokim so‘zdan keyin keladi va unga holati, jins, son va kelishik jihatdan to‘liq moslashadi. Bu jihatdan u na’t (sifat) bilan bo‘lgan munosabatga o‘xshashdir, ammo semantik vazifasi o‘zgacha – ya’ni, shunchaki tavsiflash emas, balki ta’kidlashdir.

Tavkid konstruksiyasi ikki asosiy turga bo'linadi: lafz ta'kidi (توكيد لفظي) va ma'no ta'kidi (توكيد معنوي).

Lafz ta'kidi – aynan o'sha so'zning yoki o'sha so'z o'zagidan kelib chiqqan boshqa sinonimini takrorlash yordamida amalga oshiriladi. Takrorlash orqali so'zlovchi o'z nutqining ishonchliligi va ta'sirchanligini oshiradi, bu esa nutq inkor qilinishining oldini oladi.

Bundan tashqari, bundan tashqari lafz ta'kidini jumlaning o'zini takror qilish bilan amalga oshirish mumkin.

Ta'kidning ma'noviy turi esa كُلّ (butun), نَفْس (o'zi), عَيْن (aynani), ذات (shaxsiy), أجمع (barchasi) kabi maxsus kuchaytiruvchi so'zlar orqali amalga oshiriladi. Bu birliklar alohida mustaqil leksik ma'noga ega bo'lsa-da, ta'kid vazifasida kelganda hokim so'zga ergashuvchi birlik sifatida ishlatiladi hamda hokim so'zga ishora qiluvchi olmosh bilan birga keladi. Bu olmosh hokim so'zga sona va jinsda moslashadi.

Bu birikmalar arab tilida, ayniqsa, uslubiy vazifada – nutqqa ishonchlilik yoki inkorga qarshi kuchli pozitsiya berishda keng qo'llaniladi.

Arab tili sintaksisida badal (بدل) – izohlanmishni izohlayotgan aniqlovchi bo'lak hisoblanadi. Badal odatda ot yoki olmosh bo'lib, o'zidan oldingi so'z bilan e'rob, son va jins jihatidan moslashadi. Nahviy ilmida izohlanmish al-mubdal minhu (المُبْدَل مِنْهُ), izohlovchi esa badal deb ataladi.

Ibn Hishomning ta'kidlashicha badal:

«والبديل تابع مقصود بالحكم، فلو حذف لم يخل المعنى، ولكنه يقلّ وضوح»⁵

Tarjimasi:

“Badal hukm jihatdan qasd qilingan tobedir. Agar u tushurilsa, ma'noga Zarar yetmaydi, lekin aniqlik kamayadi”.

⁵ ابن هشام، مغني اللبيب عن كتب الأعاريب، دار الفكر، بيروت، ١٩٩٧م، ص ١٥٨

Badalning boshqa tobe bo‘laklardan ajralib turadigan farqli jihati shuki, birikmada hokim so‘z emas, badal asosiy ma’no tashuvchi so‘z bo‘lib keladi. Buni yuqoridagi ta’rifning “hukm jihatidan qasd qilingan” degan qismidan bilib olishimiz mumkin.

Badalning 4 turi mavjud bo‘lib, bular quyidagilar: badal al-kull, badal al-ba’d, badal al-ishtimal, badal al-g‘olat.

- Badal al-kull – to‘liq izohlovchi;
- Badal al-ba’z – qisman izohlovchi;
- Badal al-ishtimal –mazmuniy badal
- Badal al-g‘olat – xatoni tuzatish badali

Badal – arab sintaksisidagi murakkab, lekin izohlovchi xususiyatga ega birlik. U semantik jihatdan muhim aniqlikni ta’minlaydi. Ayniqsa, yuqoridagi misollar orqali ko‘rinadiki, badal orqali arab tili gap strukturasiga qat’iylik, mazmunga esa to‘liqlik olib kirish mumkin.

Arab tili sintaksisida ‘atf (عطف) atamasi lug‘aviy ma’noda “birlashtirish, bog‘lash” degan ma’noni anglatadi. Jumlada so‘zlarni yoki jumlalarning o‘zini bog‘laydigan bog‘lovchilar atf deyiladi.

Arab tilida eng ko‘p qo‘llaniladigan bog‘lovchilar quyidagilardir:

و (va – “va”),

ف (fa – “so‘ng”),

ثم (summa – “keyin”),

أو (av – “yoki”),

بل (bal – “aksincha”),

لكن (lakinn(a) – “biroq”),

حتى (hatta – “hatto”).

Tavobi’lar" mavzusini nazariy jihatdan o‘rganish arab tili nahv tizimining naqadar izchil va mantiqiy ekanligini isbotlaydi. Na’t, ta’kid, badal va atf bo‘laklari nafaqat grammatik moslashuvni, balki nutqning aniqligi va badiiy boyligini ham ta’minlovchi

asosiy vositalardir. Mazkur tasnif talabalarga arab tili grammatikasini tizimli o'rgatishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibn Aqil, Bahouddin Abdulloh. Sharh Alfiya ibn Molik (شرح ابن عقيل على ألفية ابن مالك). – Qohira: Dar al-Turays, 1998.
2. Ibn Molik, Muhammad bin Abdulloh. Alfiya ibn Molik (ألفية ابن مالك في النحو والصرف). – Damashq: Dar Ibn Kasir, 1998.
3. Sibavayh. Al-Kitab (الكتاب). – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiya, 1988.
4. G'alayoniy, Jaloliddin. Jami' ad-durus al-arabiya (جميع الدروس العربية). – Bayrut: Dar al-Ma'rifa, 2005.